

**“DARVESHONA” MAROSIMINING TARIXIY-IJTIMOIIY MOHIYATI VA
UNING XXI ASR SHAROITIDA MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASH
JARAYONIDAGI O‘RNI**

Solijonov Otabek Ulug‘bek o‘g‘li,
University of Business and Science Toshkent filiali o‘qituvchisi
solijonovotabek997@gmail.com

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada “Darveshona” marosimining tarixiy shakllanishi, ijtimoiy funksiyalari hamda uning XXI asr sharoitida milliy o‘zlikni anglash jarayonidagi o‘rni ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda ushbu marosimning tasavvufiy an‘analari bilan bog‘liqligi, uning jamoaviylik, hamjihatlik va ijtimoiy birdamlikni mustahkamlashdagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, “Darveshona”ning qishloq ijtimoiy hayotidagi o‘rni, xususan, jamoaviy muhokama, nizolarni bartaraf etish va ijtimoiy muammolarni hal etishdagi an‘anaviy institut sifatidagi funksiyalari ochib beriladi.*

***Kalit so‘zlar:** Darveshona marosimi, milliy o‘zlik, tarixiy tafakkur, etnomadaniyat, tasavvuf an‘analari, jamoaviylik, ijtimoiy institut, an‘anaviy qadriyatlar, madaniy meros, ijtimoiy hamjihatlik.*

***Аннотация.** В данной статье представлен научный анализ исторического формирования и социальных функций церемонии «Дарвешона», а также её роли в процессе формирования национальной идентичности в XXI веке. Исследование подчеркивает связь этой церемонии с мистическими традициями, её важность в укреплении общины, солидарности и социальной сплоченности. Также раскрывается роль «Дарвешоны» в сельской общественной жизни, в частности, её функции как традиционного института коллективного обсуждения, разрешения конфликтов и решения социальных проблем.*

***Ключевые слова:** дервишская церемония, национальная идентичность, историческое мышление, этнокультура, мистические традиции, коллективизм, социальный институт, традиционные ценности, культурное наследие, социальная сплоченность.*

***Abstract.** This article provides a scientific analysis of the historical formation, social functions of the “Darveshona” ceremony, and its role in the process of national identity in the 21st century. The study highlights the connection of this ceremony with mystical traditions, its importance in strengthening community, solidarity, and social cohesion. It also reveals the role of “Darveshona” in rural social life, in particular, its functions as a traditional institution for collective discussion, conflict resolution, and solving social problems.*

***Keywords:** Dervish ceremony, national identity, historical thinking, ethnoculture, mystical traditions, collectivism, social institution, traditional values, cultural heritage, social cohesion.*

Kirish. O‘zbek xalqining boy nomoddiy madaniy merosi tarkibida turli marosim va urf-odatlar muhim o‘rin egallaydi. Ushbu marosimlar xalqning tarixiy xotirasi, ijtimoiy hayoti va ma‘naviy qadriyatlarini o‘zida mujassam etgan holda, avloddan-avlodga o‘tib kelmoqda.

Marosim bu – diniy yoki an‘anaviy urf-odatlar munosabati bilan o‘tkaziladigan yig‘indir[1]. xalqning kishilar o‘rtasida aloqalarning yaxshi taraflarini, insoniy qadriyatlarini o‘zida aks ettiradi. Zero, “etnosning shakllanishida moddiy va ma‘naviy madaniyat muhim o‘rin tutadi. Bu, avvalo, ma‘lum bir xalqqa xos milliy-etnik alomatlar, urf-odatlar, marosimlar, xalq san‘ati va axloq-odob me‘yorlarida namoyon

bo‘ladi”[2]. Oddiyroq qilib aytganda, marosim – tantanalar bilan o‘tkaziladigan tadbir hisoblanadi. Xalqimiz ma‘naviy hayotida uning bir nechta turlari – diniy marosimlar, oilaviy marosimlar, mavsumiy marosimlar kabi bir nechta turlari mavjud.

Xalqimizning kundalik hayotida eng keng tarqalgan marosim turi bu shubhasiz mavsumiy marosimlardir. Buni etnograf olim Iso Jabborov ham o‘zining “O‘zbeklar” nomli kitobida ham – “O‘zbek xalqi orasida eng keng tarqalgan, milliy tusga ega bo‘lgan urf-odatlardan mavsumiy marosimlar diqqatga sazovardir” – deb ta‘kidlaydi[3]. Mavsumiy marosimlar kishilarning har fasl uchun alohida o‘tkazadigan tadbirlari hisoblanadi. Shunday an‘analardan biri sifatida “Darveshona” marosimi alohida e‘tiborga loyiqdir.

“Darveshona” marosimi o‘z mohiyatiga ko‘ra saxovat, ehson, mehr-oqibat va ijtimoiy hamjihatlik g‘oyalarini ifodalaydi. Ushbu marosim orqali jamiyatda insonparvarlik, bir-biriga ko‘mak berish kabi fazilatlar mustahkamlanadi. Ayniqsa, u diniy-axloqiy qadriyatlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, xalqning ma‘naviy hayotida muhim o‘rin tutadi.

Darveshona “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da – darveshlarga oid, darveshlarga xos, darveshlarga o‘xshagan degan ma‘nolarda keladi. Ma‘lumotlarga ko‘ra bu marosim dastlab darveshlar uchun tashkil qilingani sababli shunday nom bilan atalgan va bugungi kunda ham u yurtimizning turli hududlarida o‘tkazib kelinadi. E‘tiborlisi shuki, yurtimizda marosimni turli nomlar bilan atashadi – Toshkent viloyati hududi va uning atroflarida “Xalfana”, Qashqadaryo viloyati Langar qishlog‘ida “Varushona”, Farg‘ona va Andijon viloyatlarida “Darshana”, Namangan viloyati Chust, Kosonsoy tumanlarida “Xudoyi”, Norin tumanida bu marosim “Darveshona” nomi bilan yuritiladi.

Etnolog olim Shavkat Bobojonov marosimning “Darveshona” deb atalishini quyidagicha ifodalaydi: – darveshlar o‘zini Xaq (Alloh) ga yetishish uchun foniy dunyo lazzatlari, havaslaridan voz kechib, boqiy dunyo saodatiga erishish uchun harakat qilgan. Ular Allohga tavakkal qilib zikr tushishgan. Guruh bo‘lib harakatlanadigan darveshlar qaysi qishloq, guzar va rabotdan o‘tmasin ularga suv, yegulik, taomlar ulashilgan. Qadimdan o‘tgan-qaytganlar, ko‘cha ahli uchun qilinadigan marosim “Darveshona” deb nomlangan[4]. Tadqiqotchilar Mamatqul Jo‘rayev va Latifa Xudoyqulovalarning “Marosimnoma” kitobida “Darveshona” deb atalishini “yil qurg‘oq kelib, yog‘ingarchilik kam bo‘lsa, uch to‘rt kishi, yelkalariga xurjun va boshqa buyumlar tashlagan holda , uyma-uy kirib, xayr-ehson (pul, tuz, non, choy, don-dun, yog‘ va boshqa narsalar) to‘plashadi. Uyma-uy kirilganda maxsus darveshona qo‘shiqlari aytilgan, duo-olqishlar, fotihalar o‘qilgan” ligi bilan izohlaydi.[5] Ushbu ma‘lumotlarga asoslanib, “Darveshona” atamasining qo‘llanilishi ushbu marosimning mazmun-mohiyati va tarixiy ildizlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, u darveshlarga xos

turmush tarzi va ijtimoiy amaliyotlarning xalq hayotiga singib ketganini aks ettiradi. Shavkat Bobojonov ta’kidlagan darveshlarning faqirona hayoti, Allohga tavakkal qilgan holda xalq orasida yurishi va ehson evaziga kun kechirishi bilan Mamatqul Jo’rayev hamda Latifa Xudoyqulova keltirgan ma’lumotlar bilan o‘zaro uyg‘unlashadi.

Fikrimizcha, aynan uyma-uy yurib xayr-ehson yig‘ish, maxsus qo‘shiqlar aytish, duo va fotihalar o‘qish kabi amaliy harakatlar darveshlarning tarixiy faoliyatini eslatadi. Shu bois marosimning “Darveshona” deb nomlanishi bejiz emas, balki uning mohiyatida darveshlarga xos yurish-turish, ibodat va ijtimoiy aloqalar mujassam ekanini ko‘rsatadi.

Demak, “Darveshona” nomi oddiy atama emas, balki marosimning kelib chiqishi darveshlar faoliyati bilan bog‘liqligini ifodalovchi nazariy belgidir. Bu nom orqali xalq ongida qadimiy darveshlik an’analari, saxovat va diniy e’tiqod asosidagi ijtimoiy birdamlik g‘oyasi saqlanib qolgan va avloddan-avlodga uzatilgan, degan xulosaga kelish mumkin.

Biz o‘z tadqiqotimizda Namangan viloyati ayrim qishloqlarida mazkur marosim qanday tartibda o‘tkazilishini kuzatdik. Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, “Darveshona” mavsumiy marosim hisoblanib, u har yili bahor faslining ilk kunlarida, dehqonlarning dalalarda ish boshlashlaridan oldin o‘tkaziladi. Uning o‘tkazilish vaqti ayrim sabablarga ko‘ra bahor faslining ilk kunlarida yoki ertaroq yoki kechroq ham o‘tkazilishi mumkin. Oldingi yillarda esa qish fasli iqlimi iliq kelib, yerning erta “yetilishi” sababli bu marosim fevral oyining ilk kunlarida o‘tkazilgan.

“Darveshona” marosimi an’anaviy jamiyatda tabiat hodisalariga diniy-marosimiy javob sifatida shakllanib, duolar qilish orqali xalqqa tinchlik, hosilga baraka va qurg‘oqchilik yillarida esa yog‘ingarchilik tilashni ko‘zlaydi.

Marosim diniy (duo va zikr), ijtimoiy (ehson va hamjihatlik), hamda madaniy (an’analarni uzatish) funksiyalarni kompleks tarzda bajaradi.

Respublikamizning ko‘plab hududlarida marosimning o‘tkazilishi tartibi o‘xshash bo‘lib, 2 ta bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda qishloq oqsoqol keksalarining marosimning qachon, qayerda o‘tkazilishi, qanday taomlar pishirilishi kabi tashkiliy masalalar haqida maslahatlashuvi bilan boshlanadi. Bu maslahatlashuvdan keyin uni o‘tkazishning keyingi bosqichi uchun amaliy harakatlar boshlanadi. Bu marosim qishloq aholisidan to‘plangan mablag‘ hisobiga o‘tkazilishi sababli keksalar maslahatida mablag‘ning miqdori ham kengashiladi va uning aniq miqdori belgilanadi. Ko‘pincha uning miqdori bozordagi yarim kilo mol go’shtining narxiga nisbat qilib olinadi. 2026-yil marosim uchun to‘planadigan mablag‘ning o‘rtacha miqdori har bir oila uchun 50 ming so‘m etib belgilandi. Alohida ta’kidlash joizki, mablag‘ miqdori belgilangani bilan kimning qancha miqdorda bu berishi bu

uning imkoniyatidan kelib chiqib amalga oshadi. Oilalar pulni ko‘p berishi ham, kam berishi ham mumkin, hattoki imkoniyati yo‘q oilalardan pul olinmaydi.

Marosim uchun mablag‘ni yig‘ish ishlari qishloqda halolligi bilan tanilgan, hisob-kitobni yaxshi biladigan, epchil kishilarga topshiriladi. Ular marosimning tugashiga qadar bajariladigan ishlar va sarf-xarajatlar ishida mas‘uliyatni o‘z zimmalariga oladilar. Ba‘zi hollarda xarajatlarning bir qismi yoki to‘lig‘icha qishloqdagi o‘ziga to‘q oilalarning ehsoni bilan qoplanadi. Marosim uchun yig‘ilgan pul marosim ehtiyojidan ortib qolsa qishloq aholisining roziligi bilan mahalladagi ehtiyojmand oilalarga beriladi yoki mahalla ehiyoji uchun ishlatiladi. Bir necha yil oldin yig‘ilgan pullar to‘y boshida turgan 2 ta oila uchun to‘yona sifatida berilgan.

Tadqiqot davomida olingan ma‘lumotlardan aniqlandiki, marosim joyi oldindan belgilangan, har yili o‘tkaziladigan joy bo‘lgan. “Darveshona” suv keladigan ariq, soy yoki buloq bo‘yida, shuningdek, qabriston, aziz avliyolar qadamjolarida o‘tkaziladi. Voha qishloqlarida “Darveshona” o‘tkaziladigan joyi ko‘proq katta ariq yoki daryoning bo‘yida o‘tkaziladi. Namangan viloyatining ko‘p qishloqlarida qishloq qabristoni yoki masjidi “Darveshona”ni o‘tkazish uchun eng maqbul joy sifatida tanlanadi. Norin tumani “Katta Oqtovliq” qishlog‘ida marosim qadimgi an‘analarga ko‘ra qishloq qabristoniga tutash bo‘lgan guzar masjidida o‘tkaziladi. Bu yer tanlanishining asosiy sababi joyning hammaga kelish uchun qulayligi bo‘lsa, boshqa tomondan olib qaraganda, bu joy masjidga kelgan aholi qabristondagi marhum qarindoshlarining ziyorat qilishlari uchun ham imkon beradi.

Biz o‘rgangan marosim bo‘ladigan kun sifatida hamma marosimga qatnasha oladigan kun, asosan dam olish kunlari tanlanadi. Shu kuni tong yorishgach qishloq yoshlari belgilangan joyga yig‘iladi va marosim o‘tkazishga mas‘ul bo‘lgan mahalla oqsoqoli tomonidan taqsimlangan ishlarni bajarishga kirishadi. Bu ishlar ro‘yxatida o‘choq-qozonni keltirish (qishloqning marosimlar uchun umumiy qozon-o‘chog‘i mavjud bo‘lib, u qishloqda eng oxirgi bo‘lib marosim o‘tkazgan kishining xonadonida bo‘ladi), o‘tin yorish, taom pishirish uchun kerak bo‘ladigan mahsulotlarni va idishlarni tayyorlash kabilardan iborat bo‘lishi mumkin. Tadbir uchun kerakli idish-tovoqlarni masjidning o‘zidagi mahallaning umumiy idish tovoqlaridan foydalaniladi.

Farg‘ona vodiysi qishloqlarida o‘tkazilgan deyarli barcha “Darveshona” marosimida faqatgina 7 yoshdan 70 yoshgacha erkaklar qatnashadi, ayol kishi bu marosimda ishtirok eta olmaydi. Axborotchilarning fikriga ko‘ra, mazkur marosim tasavvuf an‘analari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, darveshlar faoliyati tarixan erkaklar davrasida shakllangan. Zikr, jamoaviy duolar va ruhiy poklanish amallari ko‘proq erkaklar zimmasiga yuklatilganligi bois marosim erkaklar majlisi sifatida qaror topgan.

Shuningdek, an’anaviy qishloq jamiyatlarida patriarxal tuzilma ustuvor bo‘lib, jamoaviy marosimlarni tashkil etish va o‘tkazish erkaklar vakolatiga kirgan. Ayollar esa asosan oilaviy va ichki marosimlarda faol ishtirok etgan hamda “Darveshona” jarayonini bilvosita qo‘llab-quvvatlagan. Marosimning 7 yoshdan boshlanishi bolani jamoa a’zosi sifatida qabul qilish, 70 yoshgacha davom etishi esa ijtimoiy faollik mezoni sifatida talqin etiladi.

Umuman olganda, ayollarning mazkur marosimda ishtirok etmasligi qat’iy taqiqdan ko‘ra, tarixiy shakllangan urf-odat va gender rollarining natijasi bo‘lib, “Darveshona”ni etnomadaniy hodisa sifatida baholash imkonini beradi.

Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm viloyatlari – voha viloyatlarida esa marosimda ayollar va erkaklar alohida-alohida vaqtlarda, erkaklar tushlikkacha, ayollar tushlikdan keyin qatnashishgan. Aytish joizki, vodiya ham voha hududlarida ham aholi yig‘ilgan mablag‘dan tashqari qishloqdoshlari bilan baham ko‘rish uchun topgan-tutganlarini o‘zlari bilan birga olib kelishgan. Marosim uchun mahalla oshpazi tomonidan palov yoki sho‘rva ba’zi hollarda esa ikkalasi ham tayyorlanadi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, marosim qulay joyda va qulay vaqtda o‘tkazilgani bois, qishloqning har bir xonadonidan kamida bir erkak kishi marosimda ishtirok etishi shart. Taomlar pishgunga qadar masjid qabristonga tutash bo‘lganligi tufayli mahallaning yosh yigitlari qabristonni obodonlashtirish ishlari bilan shug‘ullanishadi. Yoshi ulug‘ keksalar masjid guzarida tayyorlab qo‘yilgan joyda o‘tirib gurung qiladilar. Bunda ularning qanday tartibda o‘tirishlari ham ularning yoshi va mahallada qanchalik obro‘ga egaligi bilan qat’iy bog‘langandir.

Taomlar pishgach, dastlab marosimda qatnasha olmaydigan keksalar va bemorlarning oilalariga bolalar orqali taomlar tarqatiladi. Taom tanovul qilinganidan so‘ng “Darveshona” marosimining muhim bosqichlaridan biri — jamoaviy muhokama jarayoni boshlanadi. Ushbu jarayonda marosimni tashkil etishga mas’ul bo‘lgan oqsoqol (odatda mahalla imomi yoki qishloq raisi) tomonidan hududda mavjud dolzarb ijtimoiy muammolar kun tartibiga qo‘yiladi. Oqsoqol muammoning mohiyatini yig‘ilgan jamoaga bayon etib, uni bartaraf etish zarurligini ta’kidlaydi.

Shundan so‘ng muammo jamoa a’zolari tomonidan ochiq muhokama qilinadi, turli fikr va takliflar bildiriladi hamda yakunda umumiy kelishuv asosida qaror qabul qilinadi. Mazkur jarayon an’anaviy jamoaviy boshqaruv va ijtimoiy hamjihatlik tamoyillarining amaliy ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Masalan, 2025-yilda kuzatilgan holatlardan birida yer masalasi tufayli nizo kelib chiqqan ikki qo‘shni o‘rtasidagi ziddiyat aynan “Darveshona” doirasida muhokama etilib, tomonlar o‘zaro murosaga chaqirildi hamda yarashtirildi. Bu esa mazkur

marosimning nafaqat madaniy, balki ijtimoiy nizolarni bartaraf etishda samarali institut sifatida ham ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi.

Marosim so‘nggida marhumlar haqqiga tilovat qilinib, fotihaga qo‘l ochilib, el-yurtga tinchlik, rizqqa baraka, yedirilgan ichirilgan taom haqqi-hurmati yaratgandan omonlik va yaxshilik so‘raladi, savob umid qilinadi.

Darhaqiqat, bugungi globallashuv davrida yo‘qolib borayotgan jamoaviylikni, kommunikativlikni saqlab qolish, milliyligimizni saqlab qolish bugungi kunning dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Buning uchun esa asrlar davomida shakllanib va avaylanib kelinayotgan ijobiy urf-odatlar va marosimlarni saqlab qolishga yanada ko‘proq e‘tibor qaratishimiz lozim. Zero, ular vatanga muhabbat, keksalarga hurmat, marhumlar xotirasini yod etish kabi ezgu amallarni yoshlar ongiga singdirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zME. Birinchi jild. – Toshkent , 200 -yil. –Б.?
2. Iso Jabborov. «Jahon etnologiyasi asoslari». Toshkent. «Yangi asr avlodi», 2005. – B.23.
3. Жабборов И. Ўзбеклар. – Тошкент: “Шарк”, 2008. – Б.12.
4. Шавкат Бобожонов. “Дарवेशона қандай маросим?”. Бухоронома. – Бухоро. 2026. – Б. 3.
5. Жўраев М., Худойкулова Л.: Маросимнома.//.Алишер Навоий номидаги миллий кутубхона нашриёти.Т.:2008. – Б. – 6